

MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH MASHG'ULOTLARIDA KOMP'YUTERLI TA'LIMNING DIALOG METODIDAN FOYDALANIB BOLALARNING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

G.U.Umarova

BuxDU Maktabgacha ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik konsepsiyalarni shakllantirishda kompyuter o'qitishning interaktiv usulidan foydalanish imkoniyatlari tasvirlangan va maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga axborot resurslarining ta'siri, ulardan ta'lim jarayonida foydalanishning mumkin bo'lgan usullari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *kompyuter ta'limi, multimedia, axborot resursi, o'quv jarayoni, deformatsiya, maktabgacha yoshdagi bolalar, bolaning shaxsiyati.*

Аннотация: *В статье описаны возможности использования диалогового метода компьютерного обучения в формировании математических представлений у дошкольников и в статье рассматривается влияние информационных ресурсов на детей дошкольного возраста, возможные пути их использования воспитательном процессе;*

Ключевые слова: *компьютерное образование, мультимедиа, информационный ресурс, воспитательный процесс, деформация, дети дошкольного возраста, личность ребенка.*

Abstract: *The article describes the possibilities of using the interactive method of computer learning in the formation of mathematical ideas in preschoolers and the article discusses the influence of information resources on preschool children, possible ways of using them in the educational process;*

Keywords: *computer education, multimedia, information resource, educational process, deformation, preschool children, child's personality.*

XXI asr kompyuter asri bo'lgani uchun Respublikamizda ham, xorijiy mamlakatlardagi kabi [1] MTM lar kompyuterlashtirilib boriladi va asta- sekinlik bilan kompyuter ta'limiga o'tilishi muqarrardir. SHuninā uchun bu borada hozirdanoq ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va uning metodikasini ishlab chiqiø dolzarb masala bo'lib, davr talabi hisoblanadi.

MTMlarda kompyuterli ta'limning eng qulay va samarali varianti - mul'timedia texnologiyasiga asoslangan kompyuterli ta'limdir. Bu esa MTMlarning ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvdan iboràð.

Ta'lim sohasidagi mul'timedia texnologiyasi asosida o'rganiladigan material bolalarga bir vaqtning o'zida matn, audio, video, grafika, musiqa, tasvir va animatsiya ko'rinishida jozibali taqdim etiladi.

Bola miyasiga bunday "mul'timediali hujum" natijasida ta'lim samaradorligi ortadi, jumladan, S.S. G'ulomov va boshqalarning [2] ta'kidlashicha, "O'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish(video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30%ga oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75%ga ortadi".

MTMLarda mul'timedia texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlar ikki hil metod asosida olib boriladi:

1) Yangi materiallarni o'rgatishga qaratilgan kompyuter ishtirokidagi bevosita dialog metodi.

2) Bolalar tomonidan mustqil o'rganilgan (yoki takrorlangan)da, mashqlar mustaqil bajarilganda, mul'timediali kompyuter o'yinlari amalga oshirilganda kompyuter ishtirokidagi bilvosita (virtual axborot muhitida kompyuter bilan) dialog metodidan foydalaniladi.

Yangi materialni o'rgatishga qaratilgan kompyuter ishtirokidagi dialog metodi - maxsus dasturlar asosida tayyorlanib, kompyuter xotirasiga kirgizilgan materiallar va didaktik vositalar orqali amalga oshiriladi.

MTMLarning maktabga tayyorlov guruhlarida dialog metodiga asoslangan va yangi materialni o'rgatishga qaratilgan mashg'ulotlarning davomiyligi har biri 15 daqiqali ikki etapga bo'lingan bo'lib (jami 30 daqiqa), etaplar oralig'ida esa 15-20 daqiqali relaksatsiya (umumiy toliqishlarni, jumladan, ko'z toliqishini bartaraf etish) etapiga e'tibor berilishi kerak.

Relaksatsiya etapining 15-20 daqiqa bo'lishi, bolalarning mashg'ulot davomida monitor ekraniga uzlukli (vaqti-vaqti bilan) qarashlari va ularni monitor ekranidan uzoqroq("sichqoncha" va klaviatura kabellarining to'la uzunligi masofasida) o'tkazilishi natijasidadir.


Bolalar kompyuterda 15 daqiqa mustaqil ishlagan hollarda esa relaksatsiya vaqti 5-6 soatdan kam bo'lmasligi kerak.

Yangi materialni o'rgatish uchun kompyuter ishtirokidagi bevosita dialog metodi quyidagicha: tarbiyachè bolalarni kompyuter oldiga o'tqazadi, material(ma'lumot)ni monitor ekraniga chiqaradi, bolalarning diqqatlarini ekrandagi materialga qaratadi va sharhlaydi. Bolalar materialni ko'rib, tanishib olganlaridan keyin tarbiyachi ular bilan dialogga o'tadi [3]. Dialog texnologik xaritaga kiritilgan reja asosida olib boriladi.

Quyida 5 sonigacha qo'shish va ayirish amallarini o'rgatishga doir dialog asosida o'tkaziladigan mashg'ulotdan bitta lavha

keltiramiz(birinchi etap). Ushbu mavzuga tegishli mul'timedia vositasi 1-rasmda keltirilgan.

I.




1-rasm. Qo'shish va ayirish amallariga doir taqdimot.

Archalarga animatsiya samarasi berilgani sababli, ular monitor ekranida harakatlanib, birin-ketin chiqib keladi, ranglari jilolanib turadi. (Power Point dasturi asosida tayyorlangan taqdimot materiallari asosida).

Dastavval bolalar birin-ketin chiqib keluvchi archalarni sanab boradilar. Taqdimotda monitor ekranidagi raqamlarga ham mul'timediali samara berilgan bo'ladi, ya'ni ular ham jilolanib turadi.

Shundan keyin $1+2=3$ va $5-2=3$ amallari boshqa bolalar tomonidan kompyuterda mustaqil bajartiriladi. Bundan tashqari "bo'sh o'rinni to'ldir"(2-rasm) o'yini ham kompyuterda mustaqil bajartiriladi :



2-rasm. "Bo'sh o'rinni to'ldir" kompyuterli o'yini

Boshqa mavzularga tegishli yangi materiallarni o'rgatish mashg'ulotlari ham yuqoridagicha dialog asosida olib boriladi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash kerakki, kompyuter ishtirokidagi dialog metodi bir qancha afzalliklarga ega, jumladan: barcha didaktik vositalar kompyuter xotirasida mujassamlangan bo'ladi va ulardan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyati mavjud. Bular

bolalarning kompyuter savodxonliklarini shakllantiradi, kompyuterda mustaqil ishlashga tayyorlaydi, bolalar faollashadilar, o'rganiladigan materialga qiziqishlari

ortadi, o'rganiladigan materialning hajmi ortadi va mashg'ulotning samaradorligi oshadi.

Shunday qilib, maktabga tayyorlov guruhleri bolalarining yoshlarini hisobga olganda (6-7 yosh) mul'timedia texnologiyasiga asoslangan va yangi materialni o'rgatishga qaratilgan, kompyuter ishtirokidagi bevosita dialog metodidan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishga e'tibor beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umarova G. U. Formation of Mathematical Representations in Children of the Middle Group by Means of Didactic Games //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 387-391.

2. Sharipova I. F., Umarova G. U. Some methods for calculating limits //Journal: JOURNAL OF ADVANCES IN MATHEMATICS. – Т. 10. – №. 7.

3. Умарова Г. У. МЕТОДОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 16-2 (119). – С. 97-100.

4. Umarova G. Bolalarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishda matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarining ahamiyati //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

5. Umidullaevna U. G. The influence of logical tasks on the formation of cognitive processes in preschool and primary school age //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.

6. Umarova G. U. THE INFLUENCE OF LOGICAL TASKS ON THE FORMATION OF COGNITIVE PROCESSES IN PRESCHOOL AND PRIMARY SCHOOL AGE //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1086-1092.

7. Mahmudovna N. M. Systemic Approach to Education //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 184-191.

8. Нигматова М. М., Мирзаева Д. Ш. РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ПОМОЩЬЮ АРТ ПЕДАГОГИКИ //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 14-3 (117). – С. 31-34.

9. Нигматова М. М., Мирзаева Д. Ш. АРТ-ТЕРАПИЯ, КАК СРЕДСТВО АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА К ДОО //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 1209-1215.

10. Nigmatova M. RAQAMLI O'YINLAR BOLALARNI O'QITISH USULI SIFATIDA //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

11. Mahmudovna N. M. et al. FUNDAMENTALS OF USING STEAM TECHNOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN //International Journal of Early Childhood. – Т. 14. – №. 03. – С. 2022.

12. Нигматова М. М. и др. СПОСОБЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ //Academy. – 2020. – №. 3. – С. 76-78.

13. M.Nigmatova. MAKTABDA YETTI YOSHLI BOLALAR UCHUN MOSLASHUV DARSLARINI TASHKIL ETISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ.(buxdu. uz) 22 (22). 2022/10/3
14. M.Nigmatova.BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA MAKTAB VA MTT HAMKORLIGI.ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 22 (22). 2022/10/3
15. M.Nigmatova.MURAKKAB DUNYO MURAKKAB INSON: TELEVIDENIYE VA INTERNETNING BOLALAR SHAXSIGA SALBIY TA'SIRI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 22 (22). 2022/10/3
16. M.Nigmatova. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI VA BOSHLANG'ICH TA'LIM O'RTASIDAGI UZVIYLIK. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 22 (22). 2022/10/3
17. M.Nigmatova.MAKTABGACHA TA'LIM VA UMUMIY O'RTA TA'LIMNING O'ZARO INTEGRATSIYASI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 22 (22). 2022/10/3
18. M.Nigmatova. TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA UZVIYLIK TIZIMINI YARATISH MEKANIZMLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 22 (22). 2022/10/3
19. M.Nigmatova .Maktabgacha ta'lim tizimida o'yinlar texnologiyasi. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL.2022/7/16. 831-833 bet.
20. Maxmudovna N. M. et al. MAKTABGA TAYYORLOV YOSHI BOLALARINI SHAXSIY KOMPYUTERLARDAN GIGIYENIK TOGRI FOYDALANISHGA ORGATISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 153-159.
21. Maxmudovna N. M. et al. AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN BOLALAR SALOMATLIGINI SAQLASHDA FOYDALANISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 37-43.
22. M.Nigmatova. MAKTABGACHA TALIMDA KOMPETENTSIYAVIY YONDASHUV. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –Т.3. №. 3.- С.2021/6/18.
23. Хасанова Г. К. Педагогические особенности формирования творческой активности учащихся в начальном образовании //Научный журнал. – 2019. – №. 6 (40). – С. 86-87.
24. Хасанова Г. К. Цель использования электронных образовательных ресурсов в системе обучения и образования //Научный журнал. – 2019. – №. 6 (40). – С. 84-85.
25. Хасанова, Г. К. "ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ ЛОГИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ." *Проблемы науки* (2021): 90.

26. Хасанова Г. К. ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ДОУ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА И СУЩНОСТЬ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 173-181.

27. Хаитова Н. И., Хасанова Г. К., Мухаммедова М. Ш. ТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧАЩИХСЯ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ //Научная дискуссия: вопросы педагогики и психологии. – 2016. – №. 3-1. – С. 148-153.

28. Хасанова Г. К. Интеграция предметов в современной школе как педагогическое явление //Педагогическое образование и наука. – 2017. – №. 2. – С. 127.

29. Хасанова Г. К. ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СТАНОВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ ГРАМОТНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В УЗБЕКИСТАНЕ //ББК. – 2019. – Т. 71. – С. 50.

30. Kasimovna K. G. Pedagogical Research Methods of Training in Higher Educational Establishments: A Comparative Analysis //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 250-255.